

OILAVIY ZO‘RAVONLIK VA SOMATIK HUQUQLAR: JISMONIY DAXLSIZLIKNI HIMOYA QILISHNING AMALIY CHORALARI

Saidkomilova Sevinchoy Hamza qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

Yurisprudensiya yo‘nalishi talabasi

Email: saidkomilovasevinch@gamil.com

Tel: +998886003181

Xorazm, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaviy zo‘ravonlik muammosi somatik huquqlar — ya‘ni insonning jismoniy daxlsizligi, sog‘lom tana huquqi va tibbiy aralashuvdan himoyalaniş erkinligi bilan bevosita bog‘liq holda tahlil qilinadi. Shaxsning jismoniy daxlsizligi fuqarolik va inson huquqlarining eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, har qanday shakldagi zo‘ravonlik ushbu prinsipning buzilishi hisoblanadi. Maqolada oilaviy zo‘ravonlikning huquqiy, psixologik va ijtimoiy omillari, shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligida bu holatlarga qarshi kurashishning mavjud mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, somatik huquqlarni ta‘minlashda davlat, sud organlari va ijtimoiy institutlarning o‘rni, himoya orderi tizimi, rehabilitatsiya markazlarining ahamiyati va amaliyotdagi kamchiliklar yoritiladi. Maqola yakunida oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va jismoniy daxlsizlikni kafolatlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Oilaviy zo‘ravonlik, somatik huquqlar, jismoniy daxlsizlik, inson huquqlari, himoya orderi, fuqarolik qonunchiligi, huquqiy mexanizmlar, sog‘lom tana huquqi, tibbiy aralashuv, ijtimoiy himoya.

DOMESTIC VIOLENCE AND SOMATIC RIGHTS: PRACTICAL MEASURES FOR THE PROTECTION OF PHYSICAL INVIOABILITY

Saidkomilova Sevinchoy Hamza qizi

Student of the Faculty of Social and Economic Sciences, majoring in Jurisprudence, Urgench

State University named after Abu Rayhon Beruni

Email: saidkomilovasevinch@gamil.com

Tel: +998886003181

Xorazm, O‘zbekiston

Annotation: This article examines the issue of domestic violence in direct connection with somatic rights — namely, a person’s right to physical inviolability, the right to a healthy body, and the freedom to be protected from medical intervention without consent. The inviolability of a person’s body is one of the most important principles of civil and human rights, and any form of violence constitutes a violation of this principle. The article analyzes the legal, psychological, and social factors of domestic violence, as well as the mechanisms provided in the legislation of Uzbekistan to combat such situations. In addition, the paper highlights the role of the state, judicial authorities, and social institutions in ensuring somatic rights, the system of protection orders, the importance of rehabilitation centers, and existing practical shortcomings. The article concludes with proposals and recommendations aimed at preventing domestic violence and guaranteeing physical inviolability.

Key words: Domestic violence, somatic rights, physical inviolability, human rights, protection order, civil legislation, legal mechanisms, right to a healthy body, medical intervention, social protection.

Inson huquqlari tizimida somatik huquqlar — shaxsning jismoniy daxlsizligi, tanasiga nisbatan hurmat va himoya huquqi — eng asosiy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Bu huquqning buzilishi, ayniqsa, oilaviy muhitda sodir bo‘lganda, nafaqat individual, balki ijtimoiy xavf tug‘diradi [1]. Oilaviy zo‘ravonlikning keng tarqalgan shakllari — jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zo‘ravonlik — insonning jismoniy daxlsizligini bevosita poymol etadi [2]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida “Har kimning shaxsiy daxlsizligi va sha’ni qonun bilan himoya qilinadi” deb belgilangan [3]. Ushbu norma insonning somatik huquqlarini ta’minlashda asosiy konstitutsiyaviy kafolat sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil 2-sentabr) oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashda huquqiy asos bo‘lib, himoya orderi instituti orqali jabrlanuvchilarning jismoniy xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi [4].

Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik faqat ijtimoiy muammo emas, balki insonning somatik huquqlariga tajovuz sifatida ham baholanishi lozim [5]. Chunki inson tanasining daxlsizligi, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan huquqi, tibbiy aralashuvdan erkinlik — bu shaxsning tabiiy, ajralmas huquqlari bo‘lib, ularni buzish fuqarolik, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Maqolaning maqsadi — O‘zbekiston qonunchiligi doirasida somatik huquqlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini o‘rganish, oilaviy zo‘ravonlikni bartaraf etish borasidagi amaliy choralarni tahlil qilish va ushbu sohada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Somatik huquqlar insonning shaxsiy daxlsizligi, tanasi ustidan erkinlik va sog‘lom yashash huquqini anglatadi. Bu huquqning asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida belgilangan bo‘lib, unda “Hech kim qiynoqqa solinmasligi, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga duchor qilinmasligi kerak” deb qayd etilgan [6]. Mazkur norma shaxsning jismoniy daxlsizligi — ya’ni somatik huquqlarini bevosita kafolatlaydi. Somatik huquqlar shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 99-moddasida ham o‘z ifodasini topgan. Ushbu modda fuqarolarning shaxsiy nomoddiy huquqlari, shu jumladan, hayot, sog‘liq va jismoniy daxlsizlikni himoya qilishga doir qoidalarni belgilaydi [7]. Bu huquqlar ajralmas, meros qilib olinmaydigan va boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan huquqlar sirasiga kiradi.

Oilaviy zo‘ravonlik esa somatik huquqlarni eng ko‘p buzadigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Oila — inson uchun eng yaqin, ishonchli muhit bo‘lishi kerak bo‘lgan joy, biroq ba’zi hollarda aynan shu muhitda jismoniy yoki ruhiy tazyiq sodir bo‘ladi. BMT Ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi har uchinchi ayol o‘z hayotida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan [8]. O‘zbekiston Respublikasida bu muammoni hal etish maqsadida 2019-yilda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan [9]. Mazkur qonun nafaqat ayollar, balki har qanday shaxsning jismoniy daxlsizligini ta’minlash, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, himoya orderi joriy etish orqali jabrlanuvchilarga huquqiy yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

Qonun amaliyotida himoya orderi institutining joriy etilishi muhim yutuq hisoblanadi, chunki u jabrlanuvchini zo‘ravon shaxsdan ma’lum muddat davomida ajratib turish imkonini beradi. Biroq ayrim hollarda bu tizim yetarlicha samarali ishlamayapti, sabab esa himoya orderlarini ijro etishdagi sustkashlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligidir. Demak, somatik huquqlarni to‘liq himoya qilish uchun nafaqat qonunlarning mavjudligi, balki

ularning amaliy qo'llanilishi, sud va ijtimoiy institutlarning hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida somatik huquqlarni himoya qilish masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Insonning jismoniy daxlsizligini ta'minlash uchun qonunchilik asosida bir qator mexanizmlar joriy etilgan. Jumladan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida himoya orderi instituti belgilab berilgan bo'lib, u jabrlanuvchini zo'rvon shaxsdan ajratish, xavfsiz joyga joylashtirish va psixologik yordam ko'rsatish choralari nazarda tutadi [10]. Amaliyotda himoya orderi ikki turda – zudlik bilan beriladigan (24 soat ichida) va muddatli (30 kungacha amal qiladigan) shakllarda qo'llaniladi [11]. Ushbu tartib sud yoki ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi va jabrlanuvchining jismoniy daxlsizligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunga qaramay, ayrim hollarda orderlarning ijrosi sust kechayotgani, himoya markazlari yetishmasligi va tazyiq holatlarining yashirilishi muammoni murakkablashtirmoqda. Somatik huquqlarni himoya qilishda sud organlarining roli ham beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy zo'rvonlikka oid 2 mingdan ortiq jinoyat ishi ko'rib chiqilgan, ularning 65 foizi jismoniy tazyiq holatlari bilan bog'liq bo'lgan [12]. Sudlar bu ishlarni ko'rib chiqishda jabrlanuvchining daxlsizligini ta'minlash, uni qayta psixologik tazyiqqa duchor qilmaslik uchun yopiq tartibda o'tkazishni yo'lga qo'ymoqda. Bundan tashqari, tibbiyot muassasalari ham somatik huquqlarni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat jarohat holatlarini qayd etadi, balki jabrlanuvchiga ruhiy va tibbiy rehabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatadi. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida 2022-yildan boshlab oilaviy zo'rvonlik qurbonlari uchun maxsus rehabilitatsiya xonalari tashkil etilgan [13].

Xalqaro miqyosda esa, O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan BMTning "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish to'g'risidagi Konvensiya" (CEDAW), shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi somatik huquqlarni himoya qilishda muhim normativ asos sifatida xizmat qiladi [14]. Ushbu xalqaro standartlar milliy qonunchilikka moslashtirilgan va bugungi kunda gender zo'rvonlikka qarshi kurash bo'yicha davlat dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, O'zbekistonda somatik huquqlarni himoya qilishning amaliy mexanizmlari shakllanmoqda. Ammo ularni yanada samarali qilish uchun himoya orderi tizimini kuchaytirish, ijtimoiy rehabilitatsiya markazlarini ko'paytirish va aholining huquqiy savodxonligini oshirish zarur.

Oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashish har bir davlatda inson huquqlarini ta'minlashning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Xalqaro miqyosda bu borada BMT, Yevropa Ittifoqi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan qator hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular milliy qonunchilik uchun yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda BMTning "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish to'g'risidagi konvensiya" (CEDAW)ga qo'shilgan bo'lib, bu xalqaro hujjat mamlakatning ayollarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish borasidagi majburiyatlarini mustahkamlab berdi. Shu asosda 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun milliy huquq tizimida ilk bor oilaviy zo'rvonlikni huquqiy kategoriya sifatida tan oldi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali himoya tizimi uchta asosiy yo'nalishda shakllanadi: huquqiy asos, institutsional tizim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari [15]. Masalan, Turkiyada 2012-yilda qabul qilingan 6284-sonli Qonun "Oilaviy zo'rvonlikka qarshi himoya choralari to'g'risida" hujjat nafaqat jabrlanuvchilarga tibbiy va psixologik yordam ko'rsatishni, balki

ularni vaqtincha yashash joyi bilan ta'minlashni ham nazarda tutadi [16]. Shvetsiya, Kanada va Germaniya tajribasida esa, oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga davlat tomonidan bepul yuridik yordam, ruhiy rehabilitatsiya va doimiy psixologik monitoring tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu mamlakatlarda somatik huquqlarni buzuvchi har qanday zo'ravonlik holati jinoyat sifatida malakalanadi, ya'ni shaxsning jismoniy daxlsizligi — eng oliy qadriyat deb e'tirof etiladi. O'zbekiston amaliyotida esa ushbu tajribalarning ayrim jihatlari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Masalan, 2023-yilda 14 ta hududda zo'ravonlik qurbonlari uchun "rehabilitatsiya markazlari" tashkil etildi, ularda 1500 nafardan ortiq shaxs psixologik va ijtimoiy yordam olgan [17]. Shu bilan birga, Ichki ishlar vazirligi tizimida "Gender masalalari bo'yicha inspektorlar" instituti yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular zo'ravonlik holatlariga zudlik bilan aralashish vakolatiga ega.

O'zbekiston Respublikasida insonning jismoniy daxlsizligi konstitutsiyaviy jihatdan eng muhim shaxsiy huquqlardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Ammo amaliyotda oilaviy zo'ravonlik, majburlash yoki tazyiq shakllarining ayrim holatlarda yashirin ravishda sodir etilishi ushbu huquqni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, jismoniy daxlsizlikni mustahkamlash uchun bir necha huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy choralarni taklif etish maqsadga muvofiqdir:

❖ Birinchidan, oilaviy zo'ravonlikka qarshi profilaktika ishlarini kuchaytirish zarur. Fuqarolar, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmaganlar uchun muntazam huquqiy-ma'rifiy treninglar tashkil etish, zo'ravonlikka uchragan shaxslarning o'z huquqlarini bilish darajasini oshiradi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida "Shaxsiy daxlsizlik" va "Huquqiy madaniyat asoslari" fanlarini joriy etish ham muhim ta'sir ko'rsatadi [18].

❖ Ikkinchidan, zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish kerak. Xususan, "Himoya orderi" institutining qo'llanish doirasini kengaytirish, uning ijrosini nazorat qiluvchi maxsus komissiyalar tashkil etish zarur. Shuningdek, ichki ishlar organlari va sudlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiruvchi yagona elektron platforma joriy etilishi, zo'ravonlik holatlarining tezkor tahlilini ta'minlaydi.

❖ Uchinchidan, rehabilitatsiya va psixologik yordam markazlari sonini ko'paytirish lozim. Bu markazlar nafaqat zo'ravonlikdan so'nggi yordamni, balki psixologik tiklanish, kasbiy o'qitish va ijtimoiy integratsiya xizmatlarini ham ko'rsatishi kerak. Hozirda mavjud markazlar ko'p hollarda yirik shaharlarda joylashgan bo'lib, qishloq hududlarida bu imkoniyatlar yetarli emas.

❖ To'rtinchidan, xalqaro tajribalarni milliy tizimga moslashtirish zarur. Masalan, Skandinaviya davlatlarida jismoniy daxlsizlikni himoya qilish bo'yicha maxsus "Oilaviy xavfsizlik agentliklari" faoliyat yuritadi. Ularning tajribasidan foydalanib, O'zbekistonda ham "Oilaviy xavfsizlik inspektori" lavozimini joriy etish taklif etiladi. Bu inspektorlar oilaviy nizolarni erta bosqichda aniqlab, profilaktika choralarni ko'radi..

❖ Beshinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari va NNTlar bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. Nodavlat tashkilotlar aholining ijtimoiy ishonchini qozongan bo'lib, ular orqali jabrlanuvchilarga tezkor va ishonchli yordam yetkazish tizimi yo'lga qo'yilishi mumkin.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida insonning jismoniy daxlsizligini kafolatlaydigan huquqiy va amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning hayoti va sha'niga nisbatan hurmat madaniyatini mustahkamlaydi hamda oilaviy zo'ravonlikni kamaytirishning samarali omiliga aylanadi.

Mazkur maqola davomida somatik huquqlar, xususan, insonning jismoniy daxlsizligi tamoyili va uni oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilish mexanizmlari atroflicha tahlil qilindi. O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasida insonning hayoti, sog'lig'i va sha'ni oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, amaliyotda oilaviy zo'ravonlik holatlari hali ham dolzarb muammoligicha qolmoqda. Tadqiqot davomida shartli ravishda uch yo'nalish asosiy muammo sifatida ajratildi:

1. Huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada amaliyotda ishlamasligi, ya'ni qonun mavjud bo'lsa ham, uning ijrosi zaifligi;

2. Jabrlanuvchilarning huquqiy ongi pastligi va o'z huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy qo'rquv omillari;

3. Psixologik yordam tizimining cheklanganligi va rehabilitatsiya markazlarining yetishmasligi.

Qonunlarni samarali amalga oshirish uchun institutsional hamkorlik, ya'ni ichki ishlar organlari, sudlar, prokuratura, ta'lim muassasalari va NNTlar o'rtasida yaxlit tizim shakllantirish zarur [20]. Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikning oldini olish — uni jazolashdan ko'ra samaraliroq yo'l. Shu bois, profilaktika choralari e'tibor kuchaytirish, oilaviy muhitda huquqiy madaniyatni oshirish, yoshlar o'rtasida sog'lom munosabatlarni targ'ib etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, somatik huquqlarni, ayniqsa jismoniy daxlsizlikni himoya qilish — bu faqat huquqiy masala emas, balki ijtimoiy ong, madaniyat va ta'lim darajasi bilan chambarchas bog'liq masaladir. Shu bois, fuqarolik jamiyati, davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi asosida insonning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlovchi barqaror tizimni shakllantirish — kelajakda oilaviy zo'ravonlikni kamaytirishning eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun. Toshkent: O'zbekiston, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. "Oilaviy zo'ravonlikning turlari va ularning huquqiy bahosi", 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil tahriri.
4. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, 2019-yil 2-sentabr.
5. BMT Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, 1948-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil tahriri.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 100-modda.
8. United Nations Women Report. Global estimates of violence against women, 2022.
9. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, 2019-yil 2-sentabr.
10. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, 21-modda, 2019-yil.
11. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlari, 2024-yil.
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistik byulleteni, 2023-yil.
13. SSV Rehabilitatsiya markazlari faoliyati to'g'risidagi hisobot, 2023-yil.
14. BMTning CEDAW Konvensiyasi, 1979-yil.
15. WHO Report. Responding to intimate partner violence and sexual violence against women, 2021.
16. The Law No. 6284 on Protection of Family and Prevention of Violence against Women, Turkey, 2012.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

17. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va ijtimoiy himoya vazirligi hisobotlari, 2023-yil.
18. Karimov, A. “Huquqiy madaniyat va inson huquqlari himoyasi”. – Toshkent: Adolat, 2020.
19. United Nations Human Rights Council. “Guidelines on Domestic Violence Prevention”, 2020.
20. Toshpulatova, M. “Oila va jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy mexanizmlari”. – Toshkent: Huquq nashriyoti, 2021. – 154 bet.

